Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishla...

ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

O‘zbekistondagi Erasmus+ milliy ofisi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tashkiliy ko‘magi asosida nashr etiladigan ilmiy-metodik jurnal, 13-son. -T.: NTM “NEO Hamkor”, 2023. -b.15-47.

7. To‘ychiyev A.G‘. Kichik biznesga innovatsiyalar transferini moliyalashtirish. Monografiya. “Fan” nashriyoti. Toshkent 2020. -224 b.

8. To‘ychiyev A.G‘. Agrobiznesni tashkil etish va boshqarish. O‘quv uslubiy majmua. Andijon 2020. 235 bet.

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI MODERNIZATSIYA QILISH VA BARQAROR RIVOJLANTIRISHNI TA'MINLASH

Ahrorqulov Jonibek Otabek o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Andijon fakulteti “Soliqlar va soliqqa tortish” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
ahrorqulovjonibek1@gmail.com

Annotatsiya: O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirishni ta’minlash, hozirgi kunning talabiga aylanib bormoqda. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini yanada rivojlanishdagi o‘rni, iqtisodiyot tizimini modernizatsiya qilish zaruriyati va ularning mamlakatning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan to‘siqlar tahlil qilinadi. Shuningdek, iqtisodiyotimizdagi turli yashirin iqtisodiyotning oldini olish va barqaror iqtisodiyotni ta’minlash kerakligi to‘g‘risida yoritib o‘tilgan

Kali so‘zlar: Yashirin iqtisodiyot, modernizatsiya, barqaror, fan, ta’lim, iqtisodiyot, innovatsiyalar, iqtisodiy islohotlar, texnologik yangiliklar, raqobatbardoshlik.

Abstract: Modernizing the economy of Uzbekistan and ensuring sustainable development is becoming a requirement of today. The article analyzes the role of the economy of the Republic of Uzbekistan in further development, the need to modernize the economic system, and the obstacles that prevent the sustainable development of the country. It is also highlighted the need to prevent various hidden economies in our economy and ensure a stable economy.

Key words: Hidden economy, modernization, sustainable, science, education, economy, innovations, economic reforms, technological innovations, competitiveness.

Аннотация: Модернизация экономики Узбекистана и обеспечение устойчивого развития становятся требованием сегодняшнего дня. В статье анализируется роль экономики Республики Узбекистан в дальнейшем развитии, необходимость модернизации экономической системы, а также препятствия, препятствующие устойчивому развитию страны. Также подчеркивается необходимость предотвращения различных скрытых экономик в нашей экономике и обеспечения стабильности экономики.

Ключевые слова: Скрытая экономика, модернизация, устойчивое развитие, наука, образование, экономика, инновации, экономические реформы, технологические инновации, конкурентоспособность.

O‘zbekiston iqtisodiyoti modernizatsiyasi, barqaror iqtisodiyot va jahon mamlakatlari bilan xalqaro hamkorlik masalalari O‘zbekistonning iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, barqaror iqtisodiyotni ta'minlash va yangi bosqichga olib chiqish va ko‘plab izlanishlar olib borish kerak ekanligi. Hozirgi zamon talablariga mos ravishda mamlakat

Published: 23.12.2024

Cite this article: Ahrorqulov Jonibek Otabek o‘g‘li (2024). O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirishni ta'minlash. Emro Science and Education, 1(4). https://journal.emro.uz/public/maqola/969

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

iqtisodiyotini rivojlantirish va iqtisodiy strategiyalarni ishlab chiqqan holda, amalyotda qo‘llash jarayonlarini shakllantirish. O‘zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida barqarorlikni ta’minlash uchun muhtaram Prezidentimiz tomonidan, harakatlar strategiyasi 2017–2021- yillar va taraqqiyotlar strategiyasi 2022–2026- yillardagi belgilangan yo‘nalishlar ishlab chiqilgan holda, amaliyotda keng qo‘llanildi va qo‘llanilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida, olib borilayotgan izlanishlar va harakatlar samarasiz qolmasligi, iqtisodiyotni rivojlantirshga qaratilayotgan e’tibor buning yaqqol dalilidir. Shunday qilib, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ham texnologik, ham institutsional jarayondir. Davlat organlarining jamiyatda innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish, innovatsion mafkura va innovatsion tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish bo‘yicha choratadbirlari institutsional muhitni isloh qilishga xizmat qilishi kerak. Institutsional muhit – bu mamlakatning innovatsion salohiyatini amalga oshirish uchun institutsional sharoit yaratuvchi rasmiy va norasmiy institutlar majmuasidir. Iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va ishlanmalar bilan shug‘ullanuvchi xodimlar sonining ko‘rsatkichi mamlakatimizda, yetarli emasligi va kadrlarning o‘z soha mutaxassislari emasligidir. Shu o‘rinda, Prezidentimizning 2016 – yilda, Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisida qilgan inauguratsion nutqida gapirgan.

Mirziyoyevning so‘zlariga ko‘ra, o‘zi rejalayotgan islohotlarni hayotga tadbiq etish uchun boshqaruv tizimini o‘zgartirish kerak bo‘ladi.

"Hozirgi vaqtda davlat va hokimiyat idoralarida ko‘p hollarda kadrlar salohiyatidan foydalanish, ularning vazifa va vakolatlari taqsimoti oqilona va samarali yo‘lga qo‘yilmagani sezilmoqda. Eng yomoni, bu holat ishimizga xalaqit bermoqda. Bir idorani qarasangiz, yuzlab odam nomiga ishlab o‘tiribdi. Boshqa idorani qarasangiz, ish ko‘p, vazifa ko‘p, lekin ishlaydigan odam, kadr yetishmaydi", degan Prezident.[1]

O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish va barqarorligini ta’minlash uchun eng avvalo kadrlar masalasini, hal qilishimiz kerakligi, urg‘u berib o‘tilgani yana bir bor, bunga dalil bo‘la oladi.

Iqtisodiyotning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan, yashirin iqtisodiyot va korrupsiya singari illatlarning borligi, ham iqtisodiyotimizga, salbiy ta’sir ko‘rsatmasdan qolmaydi.

Yashirin iqtisodiyot – bu iqtisodiy faoliyatni jamiyatdan yashirish va davlat tomonidan nazorat hamda hisoboti yuritilishi olib borilmasligini, shu bilan birga iqtisodiyotning kuzatib bo‘lmas va norasmiy qismidir. [2] Oddiy qilib aytadigan bo‘lsak, yashirin iqtisodiyot mavjud qonun va jamiyat qoidalarini chetlab o‘tuvchi jamiyatdagi fuqarolarning iqtisodiy aloqalari desak, ham bo‘ladi.

Korrupsiya esa – mansabdor shaxsning o‘z mansabi bo‘yicha berilgan huquqlarni shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiiste’mol qilishidan iborat amaliyot.[3] Mana shunday qo‘shtirnoq ichidagi illatlarni keltirib chiqaradigan omillarni oldini olish va bu borada islohotlar olib borish kerak ekanligi bugungi, kunning dolzarb masalalaridan bo‘lib, kelmoqda.

Asosan bu illatlar avvalo, jamiyatda iqtisodiy faoliyatni keng jamoatchilikdan yashirish uchun qulay bo‘lgan taqdirda va bunga sharoit mavjudligida paydo bo‘ladi. Yashirin iqtisodiyotning rivojlanishiga quyidagilar sabab bo‘ladi: soliqlarning oshirilishi; turli xil litsenziya, sertifikat va ruxsatnomalar olinishida ko‘zda tutilmagan xarajatlarning mavjudligi; xomashyo mahsulotlari yetkazib berilishida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirishdagi qiyinchiliklar.

Shu o‘rinda, Prezidentimizning 2020-yil 27-iyul kuni yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar muhokamasi yuzasidan yig‘ilish o‘tkazganliklari va bu yig‘ilishda:

“Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish tadbirkorlarni jazolash, ularning faoliyatiga to‘sqinlik qilish degani emas. Bu ayniqsa pandemiya davrida katta ahamiyatga ega. Joylarda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali mayda korrupsiyaga ham qat'iy choralar ko‘rish zarur”,[4] – deb aytgan gaplaridan bilishimiz mumkinki, Prezidentimizning qanchalik darajada iqtisodiyotimizni jahon iqtisodiyoti darajasiga, olib va bu illatlarni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish uchun say-harakat qilayotganliklari, bunga yaqqol dalildir.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirishni ta’minlash mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash, xalq farovonligini oshirish va global bozorda raqobatbardoshliligini ta’minlash hozirgi kunning asosiy vazifalardan biridir. Shu bilan birga, barqaror rivojlanish uchun ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirish, ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va tadbirkorlik muhitini yaxshilash muhim ahamiyatga ega. Davlat tomonidan iqtisodiy islohotlarning davom ettirilishi va xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash, ham bu jarayonda hal qiluvchi omillardan biridir. Mazkur yo‘nalishdagi chora-tadbirlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi O‘zbekistonni barqaror iqtisodiyotni vujudga keltirishi bilan birgalikda, mintaqaviy va global iqtisodiyotda yetakchi o‘ringa olib chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan ma’lumotlar ro‘yxati:

1.https://www.bbc.com/uzbek/lotin-38351765. [1]
2.https://uz.wikipedia.org/wiki/Yashirin_iqtisodiyot. [2]
3.https://uz.wikipedia.org/wiki/Korrupsiya. [3]
4.https://kun.uz/uz/news/2020/07/27/yashirin-iqtisodiyotni-qisqartirish-va-korrupsiyaning-oldini-olish-masalalari-muhokama-qilindi. [4]

AKSIZ SOLIG‘I VA UNING IQTISODIYOTDAGI O‘RNI

Chorshanbayev Umurzoq
Guliston Davlat Universiteti Buxgalteriya hisobi va moliya” kafedrasi o‘qituvchisi

Sharobboyev Asilbek
Guliston Davlat Universiteti “Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar” fakulteti talabasi.

Annotatsiya: “Aksiz solig‘i va uning iqtisodiyotdagi o‘rni” mavzusidagi maqolada aksiz solig‘ining mohiyati, uning zamonaviy iqtisodiyotdagi ahamiyati va rivojlanish tendensiyalari atroflicha yoritib berilgan. Maqolada aksiz solig‘ining nazariy asoslari, soliqqa tortish mexanizmlari, soliq stavkalarini belgilash tamoyillari hamda soliq ma'muriyatchiligi masalalari kompleks tarzda o‘rganilgan.

Tadqiqot davomida aksiz solig‘ining fiskal, tartibga soluvchi va ijtimoiy vazifalari tahlil qilingan. Maqolada aksiz solig‘ini undirish amaliyotidagi mavjud muammolar aniqlangan va ularni hal etish yo‘llari taklif etilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va xalqaro tajribani o‘zlashtirish masalalari ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: aksiz solig‘i, bilvosita soliqlar, soliq stavkalari, soliq ma'muriyatchiligi, soliq nazorati, raqamlashtirish, soliq siyosati, byudjet daromadlari.